

PIRIMQUL QODIROVNING "QORA KO'ZLAR" ROMANIDAGI ANTROPONIMLARNING ONOMASTIK TAHLILI

Yo'lchiyeva Odina Alisher qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning "Qora ko'zlar" romani asosida antroponimlarning tahlili yuzasidan ba'zi fikr-mulohazalar yuritilgan. Asarda qo'llanilgan antroponimlarning ma'no va mohiyati personajlar xarakteriga mutanosib ekanligi qiyosiy o'rganilgan. Shu bilan birgalikda, ularning romanda tanlangan antroponimlar fe'l-atvori bilan uyg'unligi va obraz yaratishda yozuvchining badiiy til mahoratiga munosabat bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *onomastika, antroponomika, antroponim, roman, tahlil, satr, ism, asar, obraz.*

ОНОМАСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНТРОПОНИМОВ В РОМАНЕ ПИРИМКУЛА КАДИРОВА "ОЧИНЫ ЧЕРНЫЕ"

Аннотация: *В данной статье сделаны некоторые комментарии к анализу антропонимов на основе романа «Очи черные» народного писателя Узбекистана Пиримкула Кадырова. Сравнительно изучено, что значение и сущность используемых в произведении антропонимов пропорциональны характеру персонажей. При этом выражаются их сочетаемость с персонажами антропонимов, выбранных в романе, и художественные языковые навыки писателя в создании образа.*

Ключевые слова: *ономастика, антропономика, антропоним, роман, анализ, линия, имя, произведение, образ.*

ONOMASTIC ANALYSIS OF ANTHROPOONYMS IN THE NOVEL "BLACK EYES" BY PIRIMQUL KADIROV

Annotation: *In this article, some comments are made on the analysis of anthroponyms based on the novel "Black Eyes" by the People's Writer of Uzbekistan Pirimkul Kadyrov. It has been comparatively studied that the meaning and essence of the anthroponyms used in the work are proportional to the character of the characters. At the same time, their compatibility with the*

characters of the anthroponyms chosen in the novel and the artistic language skills of the writer in creating an image are expressed.

Key words: *onomastics, anthroponomics, anthroponym, novel, analysis, line, name, work, image.*

Mahorati yuksak yozuvchi o'zining adabiy merosi bilan xalqning qalbida iz qoldiradi. Chunki har bir yozilgan asar millatning o'ziga xos an'analarini, urfatlari va madaniyatini ifoda etadigan jihatlarni namoyon qiladi. Shunday badiiy mahorati yuksak bo'lgan yozuvchilardan biri Pirimqul Qodirov o'zining asarlari orqali o'tmishimiz, yashagan zamoniga oid vogeliklarni qalamga olar ekan, har bir qahramoni yaratishda munosib ismlarni tanlaydi. Asarda aks etgan bu qahramonlarga qo'yilgan ismlarni ularning xarakteriga monand ekanligini qayd etish lozim. Ya'ni ismlar, nomlarni yozuvchi shunchaki tanlamaydi, puxta o'ylab obrazning xarakteriga oid tafsilotlarni aks ettirgan antoponimlarga murojaat etadi. Antroponomika (yunoncha antropo-odam, onoma-nom) – kishi ism-familiya, laqabini o'rganadigan fan” [3, 16].

Xususan, yozuvchining “Qora ko'zlar” romanida qo'llanilgan antroponomilar haqida yuqorida fikrlar mos keladi deyish mumkin:

Avaz – “(o'zbekcha) oldingi turmagan bolalarning o'rniغا, evaziga kelgan bola” [2, 22] ma'nosini anglatadi. Aynan manashu antroponom asarni mazmun va mohiyatini ochib beruvchi bosh qahramon hisoblanadi. U oilada eng kenja farzand bo'lib, Qambar ota va Sanam xolaning farzandi, Ortiqning ukasi hisoblanadi. Bu obraz orqali xalqimizga xos bo'lgan mardlik, soddalik, jo'shqin va shijoatga boyligini ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida asradagi bir voqeani keltirishimiz mumkin: Tog'larda qo'y boqib yurgan Avaz va Hulkar birdan bo'ron turishini sezib qoldi, lekin tekislikkacha bo'lgan masofa juda uzoqlashib ketgan edi. Tog'dan esa sel xavfi paydo bo'lishini fahmlashadi. Ular o'ylagan gumon to'g'ri chiqib, Avaz nima qilish haqida o'ylanib turganda, Hulkarga otini beradi va suruvning boshida qo'ylarni olib ketishini, o'zi esa oxirida borib, qo'ylarga ko'z quloq bo'lishini aytadi. Mana shunday qiyin vaziyatda Avaz sel xavfidan qutilib qoladi.

Hulkar – “(o'zbekcha) tolei Surayyo yulduziga (Yeti qaroqchi turkumida) porloq bo'lsin” [2, 579] degan ma'noni anglatadi. Ushbu antroponom ham asardagi bosh qahramonlardan biri. Lekin u tolei porloq bo'lishi uchun hayoti davomida qattiq kurashgan obraz hisoblanib, asarning so'ngida esa Avaz bilan baxtli hayot kechirishga tuyassar bo'ladi. U qiz bola bo'lishiga qaramay, juda jasur, g'ururi toptalishini bilsa ham kurashishda to'xtamaydigan o'zbek qizlarining yorqin siymosini gavdalantirgan deyishimiz ham mumkin. Masalan, u Xolbekka yoshligidan unashtirilgan va to'y kuni yaqinlashayotgan bir paytda,

u yoshligida mehr qo‘ygan do‘sti Avaz bilan turmush quradi, buning ustiga qishlog‘ida bu oila to‘g‘risida turli mish-mishlar tarqalishiga qaramay, Avaz bilan birgalikda tog‘ga, ya’ni qo‘ylarni boqgani chiqib ketadi, chunki u faqat Avaz va o‘zi uchun yashashga majbur bo‘lgan edi.

Xolbek – “(fors-tojik va o‘zbekcha) beklar avlodiga mansub xoldor, xolli bola” [2, 463] kabi ma’nolarni anglatadi. Xolbek Ismat boboning og‘li va Suyumaning ukasi. U yoshligidan Avaz bilan do‘st bo‘ladi, ammo Hulkar tufayli ularning orasidagi hamjihatlik yo‘qoladi. Aynan manashundan keyin asarda Xolbek mushkul vaziyatlarga tushib qoladi, chunki u faqat oladin Avaz bilan sirlashgan, maslahatlashgan. Otasi bilan esa oralari yumshamas, otasining urush paytida nafsiqa qul bo‘lib, uyiga hamma narsalarni tashigani tufayli o‘zidan va otasidan nafratlanardi. Opasi ham xuddi otasiga tortganligi uchun u bilan ham deyarli gaplashmasdi. Shu tufayli ham o‘zining eng yaqin insonlarini ranjitib yurardi. Uning yagona sirdoshlari faqat uning onasi, qaylig‘i Jannatxon va eng yaqin do‘sti Avaz bo‘lib qolishini anglagach, ulardan uzr so‘raydi va asarning so‘ngida esa Avaz va Hulkar kabi yashashni istab, Jannatxon bilan shunday hayot kechirishga va’da beradi.

Jannatxon – “(arabcha) bexisht, uchmoh, ya’ni jannatning qizi” [2, 133] degan ma’noni anglatadi. Asarda ham bu antroponim ismiga mos qiz sanaladi. Chunki u latofatli, odobli va go‘zal ovoz sohibi bo‘lganligi uchun qishloqlaridagi eng tanilgan xonanda deyishimiz ham mumkin. U kelinligi paytida qayniotasi Ismat bobodan va qayniopasi Suyumadan ko‘p azob chekadi, lekin u o‘zining kelajagi va Xolbek uchun hammasiga chidab yashaydi. Ammo Xolbekning unga ishonmasligi, dugonalari oldida qo‘sinq aytishini taqiqlashi Jannatxonning uydan ketishiga sabab bo‘ladi. Keyinchalik Xolbek barcha ayblariga iqror bo‘lgach, uni boshqa ranjitmaslikka va’da bergach, Jannatxon uni kechirib, u bilan birga yashay boshlaydi.

Zamonali – “(arabcha) Zamon va Ali yoki davrining munosib farzandlarini imom Ali qo’llab yursin” [2, 147] degan ma’nolarni anglatadi. Bu obraz ham asarda yorqin timsollarga ega. Masalan, u Avaz bilan yelkama-yelka kurashib, qilshloqlaridagi turliadolatsizliklarni barham toptirishdi. Uning shu maqsad yo‘lida ishongan yagona insoni Avaz edi. Ular o‘zlaridagi muammolarni aytib, birgalikda ularga yechim topishar edi. Bir o‘rinda buning yaqqol misolini ko‘rishimiz mumkin:

“–Yo‘q, men bunday demoqchi emasman. Chunki gam umuman qishlog‘imizga soya solib turgan narsalarni yo‘qotishda. Eski urf-odatlar ham hazilakam soya emas. Hulkar ikkalang shu soyaning bir chetini ko‘tarib tashlab, “Oyko‘l”ning yuzini ancha ochdilaring. Odam bittasidan qochsa, boshqa undan yomonrog‘i orqasidan kelib, oyoqdan olar ekan...

- Xuddi shu sen aytgan savdo hozir mening boshimga tushgan. Men Hulkarga qiyin bo'lishini o'ylab yuruvdim. Aslida bu qiyinchilik bilan yuzma-yuz olishgan ma'qul ekan..." [1, 81].

Qambar ota – "(arabcha) bu nom xalif Aliga sodiq qulning ismi bo'lgan. U ozod qilingach ham Qambarali, ya'ni Aliga sodiq kishi deb yuritilgan" [2, 519]. Bu antroponim ham asarda muhim o'rinnegi egallaydi. Qambar ota Avazning otasi hisoblanadi va asarda o'g'liga va xalqiga chin dildan yordam bergan ota hamdir. Asarning nega shunday nomlanishini ham bu obraz keltrib o'tgan. Aslida "Qora ko'zlar" bu xalqdir. Ya'ni xalq uchun qilingan har qanday ish o'sha insonni yuksaklikka yetaklaydi. Qaysidir ma'noda Qambar ota, Avaz, Zamonali va shu kabi ijobjiy obrazlarni "Oyko'l"ning yuragi" deyish ham mumkin.

Sanam xola – "(arabcha) majusiyalar sig'inadigan ma'buda. Ko'chma ma'nosi go'zal, zebo" [2, 373] kabi ma'nolarni anglatadi. Sanam xola latofatli bo'lishiga qaramay, eski an'ana va urf-odatlarga ishonuvchan edi. U Qambar otaning turmush o'rtog'i, Avazning onasi va Hukarning qaynionasi edi. Sanam xola "eskicha odam" bo'lganligi uchun doimo Avaz va Hulkarlarni tergab yurardi, shuning uchun ham Avaz Hulkarni tog'ga olib ketishga majbur bo'ladi.

Ismat bobo – "(arabcha) toza, ozoda, gunohsiz, taqvodor" [2, 171] degan ma'nolarni anglatadi. Lekin Ismat bobo ismiga mos obraz emas edi. Chunki bu antroponimda ochko'zlik, yolg'onchilik kabi illatlar bisyordir. Asarda Ismat boboning sheriklari kuyovi Ortiqjon, qizi Suyuma hamda Davlatbekovlar xalqning rizqini o'zlariniki qilib olib, ularga katta zarar keltirishgandi. Shu kabi bir qancha obrazlar millatimizdagi qoloqliklarni yoritib bergan obrazlar deyishimiz ham mumkin. Manashunday obrazlarning hatti-harakatini tashqi tomonidan kuzatib yetarlicha xulosa chiqarishimiz mumkin.

Suyuma – "(o'zbekcha) e'zozli, aziza qiz" [2, 337] kabi ma'nolarni anglatib, ushbu asarda salbiy taraflari bilan ifodalangan antroponim hisoblanadi. Uning og'zidan shirin so'z chiqmas, aksincha, nuqul bolalarini qarg'ar, turmush o'rtog'i Ortiqdan shikoyat qilar, har kuni otasini oldiga borib kelardi. U asarda "aziza qiz" bo'lib emas, buning aksi bo'lib gavdalantirilgan.

Davlatbekov – "(arabcha) boy, badavlat" [2, 105] degan ma'nolarni anglatadi. To'g'ri Davlatbekov boy, badavlat, katta uy va bog'i bo'lishiga qaramay, bularning barchasi halol yo'l bilan topilgan pullar evaziga emas edi. Aslida u avvalgi raisdan keyin o'zi bu qishloqni idora qilmoqchi edi, ammo uning o'rniga partkom a'zosi o'tirgandan keyin, u barcha yomon ishlarini, ya'ni xalqning pullarini olishni tezlashtirdi. Bundan ham ko'rinish turibdiki, u ham huddi Ismat bobo va Ortiq kabi o'z nafsining quliga aylangan bo'lib, bu maqsad yo'lida unga har bir to'siqni osonlikcha yengib o'tmoqchi bo'lganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki, adib asaridagi Davlatbekov, Sanam xola, Qambar ota, Zamonali, Jannatxon, Hulkar kabi antroponimlarning o‘z ma’nolari bilan mos ravishda taqdirlarini ham shunga monand chambarchas bog’lay olgan; Avaz, Ismat bobo, Suyuma obrazlarining antroponim ma’nosи bilan esa qarama-qarshi bog’liqlilikni hosil qiladi. Yozuvchi foydalangan har bir antroponim asardagi obrazlarga xos tarzda qo’llanilgan bo‘lib, bu ham qaysidir ma’noda asarning tub mohiyatini ochishda ko‘maklashgan deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Pirimqul Q. Qora ko‘zlar. –Toshkent: “Im·ziyo·zakovat”. 2021. –B. 81.
2. Begmatov E. Ismlarning sirli olami. –Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”. 2013. –B. 22, 105, 133, 147, 171, 337, 373, 463, 519, 579.
3. Qorayev S. Toponomika. –Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti”. 2006. –B. 16.